

BYUDJET TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: OCHIQ BYUDJET AMALIYOTI

Karimov Shoxrux Boydulla o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada byudjet tizimining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, byudjet tizimidagi islohotlar va ochiq byudej orqali tashabbusli byudjetlashtirish amaliyoti yoritilgan.

Kalit so'zlar: byudjet tizimi, ochiq byudjet, tashabbusli byudjet, davlat byudjeti, byudjet nazorati, korrupsiya

Har bir mamlakatning normal ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlanishi uchun samarali faoliyat qiluvchi davlat zarur. Davlat jamiyatga va mamlakat fuqarolariga zarur tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, iqtisodiyot va ijtimoiy tarmoqlarning samarali faoliyat qilishi uchun me'yoriy va institutsional tuzilmalarning qonuniy asoslarini yaratish va shu bilan o'z fuqarolarining yashashi va ishlashi uchun moddiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratib berish vazifalarini bajaradi. Shu vazifalardan kelib chiqqan holda, davlatning asosiy funksiyalarini quyidagilardan iborat. Davlat yuqorida bayon qilingan o'z funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun, shuningdek, mamlakat taraqqiyotining har bir bosqichida dolzarb bo'lgan strategik maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun mamlakatda yaratilgan moliyaviy resurslarning ma'lum bir qismini o'z qo'lida to'plamog'i obyektiv zaruriyatdir. Aynan shu obyektiv zaruriyatning mavjud bo'lishi davlat byudjetining mavjud bo'lishini va amal qilishini taqozo etadi. Davlat byudjeti davlat moliya tizimining tarkibiy qismini tashkil etadi va Davlat byudjetining mazmuni bevosita davlatning ijtimoiy-iqtisodiy funksiya va majburiyatlaridan kelib chiqadi. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati tadbirlarini, ijtimoiy soha va tarmoqlarni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashda davlat byudjeti asosiy moliyaviy manba bo'lib xizmat qiladi. Davlat byudjetini boshqarish va tartibga solishda, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda, har bir davrning ustuvor taraqqiyot vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishda davlatning boshqa iqtisodiy dastaklari qatori, davlat byudjeti ham muhim ahamiyat kasb etadi, bu vazifalarning samarali ijrosi davlat byudjeti amal qilishining tegishli mexanizmlarini ishlab chiqish va amalda qo'llash bilan ta'minlanadi.[1]

Respublikamizda Davlat byudjetini tashkil etishda asosiy qonun hujjalari bo'lib, "O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi" va "O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi" hisoblanadi. Davlat byudjeti davlatning qonun kuchiga ega bo'lgan asosiy moliyaviy rejasi hisoblanadi. Asosiy qonun-qoidalar O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi bilan belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi 2013-yil 26-dekabrda qabul qilingan bo'lib, 2014-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kirgan va hozir ham amalda foydalaniladi. O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi 9 bo'lim, 28 bob va 192 moddadan iborat hisoblanadi.

"O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi"ning 1-moddasiga asosan "Ushbu Kodeks O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag' jalb

qilish va byudjet to‘g‘risidagi qonunchilik ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi” ekanligi, xususan, “Byudjet to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Kodeks va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir. Byudjet to‘g‘risidagi qonunchilikning boshqa qonunchilik hujjatlarida ko‘rsatilgan normalari ushbu Kodeksga muvofiq bo‘lishi kerak.

Mamlakatimizda byudjet mablag‘larini shakllantirishda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi ham muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 2007-yil 25-dekabrda O‘RQ-136-son Qonun bilan tasdiqlangan. 2020 va 2021-yillar davomida yangi tahrirdagi Soliq Kodeksi normalarining amaliy ta’siri va samaradorligi doimiy ravishda hamda har tomonlama ta’minlandi.

O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimiga xos bo‘lgan prinsiplar esa quyidagilardan iborat: Byudjet tizimining yagonaligi prinsipi byudjet hujjatlari va byudjet hisobotlarining shakllari, byudjet tasnifi yagona bo‘lishi hamda byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va xarajatlarini shakllantirish hamda ijro etish, byudjet hisobini yuritish va byudjet hisobotini tuzishning yagona tartibini ko‘zda tutadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining barcha viloyat, tuman, shaharlarining byudjetlari bir xil, yagona belgilangan tartib asosida shakllantirilib, yagona me’yorlar asosida ulardan xarajatlar amalga oshiriladi. Qolaversa, mamlakat hududidagi barcha byudjetdan moliyalashtiriladigan tashkilot va muassasalar hududiy joylashuvidan qat’iy nazar bir xil byudjet qonunchiliga rioya etadi. Misol uchun, biror tuman xalq deputatlari Kengashi tuman byudjeti loyihasini tuzishda obodonlashtirish uchun ajratilayotgan mablag‘lar natijasida tuman hududining qancha qismi asfaltlanishi, qancha ko‘chat ekilishi kabi aniq natijalar erishishni ko‘zda tutishi lozim. Kassaning yagonaligi prinsipi esa byudjet tizimi byudjetlarining barcha daromadlari Yagona g‘azna hisobvarag‘iga kiritilishini va ularning xarajatlarini to‘lash ushbu hisobvaraqdan amalga oshirilishini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi butun byudjet jarayonini (Davlat byudjetini shakllantirish, tasdiqlash, ijro etishni hamda nazoratni ta’minlashni) yagona va yaxlit qonun hujjatida tizimlashtirishni, davlat byudjetini ham, byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarni ham tartibga solishning yagona prinsiplarini qo‘llanishni, byudjet jarayoni barcha qatnashchilarining vakolatlarini hamda ularning o‘zaro hamkorligi mexanizmlarini belgilashni, shuningdek, byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirib, mahalliy byudjetlarning daromadlar manbalarini mustahkamlab qo‘yishni, barcha darajalardagi byudjetlar o‘rtasida vakolatlarni taqsimlashni va ularning o‘zaro hamkorligini nazarda tutadi.[2]

Byudjetning asosini byudjet daromadlari va xarajatlari tashkil qiladi. Byudjet daromadlari miqdori ko‘p jihatdan mamlakatdagi soliq va yig‘imlardan shakllantiriladi. Bu holat byudjet daromadlari davlatdagi soliq yuki bilan bog‘liq ekanligini ifodalaydi. Davlat byudjetning ikkinchi qismi bo‘lgan byudjet xarajatlari esa byudjet daromadlariga bog‘liq holda shakllantiriladi. Byudjet xarajatlarini uning daromadlaridan oshiq bo‘lishi byudjet taqchilligini yuzaga keltiradi. Byudjet taqchilligini qoplash maqsadida davlat tashqi va ichki qarzlarni jalb qilishiga olib keladi va bu qarz mablag‘lari davlatga malum bir subyekt (shaxs, davlat, tashkilot va h.k) oldida majburiyatlarni paydo qiladi. Bizning fikrimizcha mamlakatlar byudjet xarajatlarini to‘g‘ri va samarali sarflash orqali uning miqdorini kamaytirishi,

shuningdek, qilingan xarajatlarni samarali qaytishiga va o‘zini oqlashiga erishishi mumkin. Bu esa o‘z-o‘zidan mamlakatga kamroq qarz jalg qilish va soliq yukini ham kamaytirish imkoniyatini beradi. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, byudjet xarajatlari samaradorligi mamlakat iqtisodiyoti va rivojlanishi uchun muhim va dolzarb ko‘rsatkich hisoblanadi. O‘z navbatida, har bir vazirlik, davlat qo‘mitasi, idorasi yoki alohida byudjet tashkilotiga ajratilgan byudjet mablag‘lari maqsadli belgisiga ko‘ra xarajatlarning aniq turlari bo‘yicha aniqlashtiriladi. Masalan, byudjet tashkilotiga ajratilgan byudjet mablag‘lari ish haqi, kommunal xizmatlar haqini to‘lash, joriy ta’mirlash, asbob-uskunalar va jihozlar, oziq-ovqat, dori-darmon sotib olish kabi xarajat turlari (muassasaning xarajatlar smetasiga kiritilgan xarajatlar turlari) bo‘yicha rejalshtiriladi va moliyalashtiriladi. Davlat byudjetining har bir guruh xarajatlari, o‘z navbatida, mahkamaviy va maqsadli belgisiga ko‘ra guruhlanadi. Mahkamaviy belgisiga ko‘ra xarajatlar byudjet mablag‘larini oluvchi vazirlik, davlat qo‘mitasi yoki boshqa davlat boshqaruv organining xarajatlariga bo‘linadi. Xarajatlar tarkibini ushbu belgiga ko‘ra tahlil qilishda ularning qaysi tarmoq va sohalarga yo‘naltirilayotgani haqida xulosa qilish mumkin bo‘ladi. Masalan, davlat byudjetidan funksional tayinlanishiga ko‘ra ta’lim sohasiga ajratilgan pul mablag‘lari Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Maktabgacha ta’lim vazirligi kabi mahkamalar tomonidan tasarruf etiladi.[3]

So‘nggi yillarda aholining turmush sifatini tubdan yaxshilashga qaratilgan bunyodkorlik ishlari jadal sur’atlar bilan olib borilmoqda. Biznes yuritishning huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda va institutsiyaviy mexanizmlari takomillashtirilmoqda, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish choralari ko‘rilmoxda. Shu bilan birga, byudjet mablag‘larini talon-toroj qilish va ulardan maqsadsiz foydalanish holatlari saqlanib qolmoqda, bu esa olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bozor munosabatlarining bugungi rivoji hamda insofli tadbirdorlik sub’ektlarini himoya qilish zarurati iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish, «xufyona iqtisodiyot»ning shakllanish mexanizmlarini, chet el valyutasining nazoratsiz chiqib ketish kanallarini o‘z vaqtida aniqlashning shakl va usullarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni, shuningdek, importni optimallashtirish va milliy tovarlar eksportini rag‘batlantirish bo‘yicha tizimli ishlarni kuchaytirishni ham talab etmoqda. Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni, bozor mexanizmining takomillashishi, islohotlarning tobora chuqurlashib borishi har bir iqtisodiy jarayonni chuqur taxlil qilishni taqozo qilmoqda. Respublika va mahalliy byudjetlarning bajarilishi ustidan moliyaviy nazorat samaradorligini oshirish muammolari belgilangan parametrlar doirasida daromad va xarajatlarni amalga oshirish, byudjetlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni shakllantirish, byudjet mablag‘lari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning hisobini yuritishda katta ahamiyat kasb etadi. Davlat byudjeti xarajatlari, davlat xarajatlarini tashkil etishga oid tamoyillar, mablag‘larni maqsadli taqsimlash, tejamkorlik rejimiga qat’iy amal qilish, davlat moliya-byudjet intizomiga amal qilinishiga erishish maqsadida samarali Davlat byudjeti tizimiga ega bo‘lish lozim. Jumladan, byudjet jarayonini mavjud qonunchilik asosida, byudjet ijrosini belgilangan parametrlar doirasida ijro etish, byudjetdan mablag‘ bilan ta’minlashni takomillashtirish hamda mablag‘lardan samarali va maqsadli foydalanish, byudjet

intizomini ta'minlash byudjet tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ushbu maqsad va vazifalarni amalgga oshirish byudjet jarayonlarida mablag‘larni maqsadli taqsimlash, mablag‘lardan eng yuqori samara olinishiga erishiladigan holda foydalanish va tejamkorlik hamda davlat byudjeti samarasini ta’minalash va uni nazorati orqali erishish mumkin bo‘ladi. Hozirgi iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish davlatning byudjet siyosatiga ham chambarchas bog‘liq sharoitda eng muhim vazifa qilib byudjetlarning qat’iy bajarilishi ustidan doimiy nazoratni, moliya qonunchiligiga rioya etilishi va byudjet intizomini ta’minalash, davlat byudjetining samaradorligini oshirish, mavjud mablag‘larni oqilona taqsimlash, ijtimoiy xarajatlarning aniq maqsadli va egali bo‘lishiga erishishdan iboratdir.[4]

Shuningdek, markazlashgan byudjet mablag‘laridan belgilangan maqsadda foydalanishini nazorat qilish, shuningdek, ijtimoiy-madaniy tadbirlarga ajratilgan byudjet mablag‘laridan foydalanish dastur asosida aniq ro‘yxatli bo‘lishini, byudjetdan mablag‘ oladigan byudjet muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini soddalashtirish, bu bilan byudjet mablag‘laridan foydalanish hisobini yuritish nazoratini ta’minalishini tahlil qilishni taqozo etadi. Byudjet mablag‘lari mamlakatning makroiqtisodiy barqarorlikka erishish yo‘lida hukumat tomonidan yaqin va uzoq davrlarga mo‘ljallangan davlat dasturlarini amalgga oshirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shuni inobatga olib bugungi kunda moliyaviy resurslarning cheklanganligi sharoitida ijtimoiy xarajatlarning aniq, maqsadli va manzilli bo‘lishiga erishishga zaruriyat tug‘iladi. Bu esa Davlat byudjetining mavjud mablag‘larini maqsadli to‘g‘ri taqsimlanishini doimiy nazoratini amalgga oshirishni talab etadi. Bozor munosabatlari sharoitida amalgga oshirilayotgan iqtisodiy o‘zgarishlarni ta’minalashdagi jarayonlar, jumladan, byudjet jarayoni, byudjet ijrosini qat’iy ta’minalashda byudjetdan birinchi darajali ustuvor ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish va undan maqsadli, samarali foydalanishda davlat byudjetini mustahkamlash borasida olib borilayotgan ishlar bilan bir qatorda yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Yuqoridagi vazifalarni amalgga oshirish byudjet siyosatini to‘g‘ri yuritish, byudjet mablag‘laridan samarali, oqilona foydalanishni talab etadi. Byudjet dasturlarining aniq va o‘z vaqtida bajarilishi ayni paytda davlat dasturlarining ham pirovard natijada ijobiy bajarilishini ta’minalaydi. Byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanishga esa samarali davlat byudjetini shakllantirmasdan turib erishib bo‘lmaydi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev davlat byudjetini rivojlantirish, iqtisodiyotni barqarorashtirishning asosiy omillaridan biri ekanligini o‘zining “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida” asarida ta’kidlab o‘tdilar. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ham shuni ko‘rsatadiki, byudjetning asosiy vazifalari milliy daromadni taqsimlash, iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish va tartibga solish, ijtimoiy sohalarni moliyaviy ta’minalash va davlatning ijtimoiy siyosatini amalgga oshirish va markazlashtirilgan pul jamg‘armalarini shakllantirish hamda ulardan foydalanishning moliyaviy nazoratini amalgga oshirishdan iborat. Chunki, byudjetda ko‘zda tutilgan tadbirlar va dasturlarni aniq va o‘z vaqtida moliyalashtirilishi ayni paytda davlat dasturlarining ham pirovard natijada to‘liq bajarilishini ta’minalaydi.

Byudjet mablag‘laridan oqilona foydalanishga esa samarali nazorat tizimini shakllantirmasdan turib erishib bo‘lmaydi.[5] Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga

o‘tish va iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida Davlat byudjeti hisobiga mablag‘ bilan ta‘minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish nazoratini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
2. Nurmuxamedova B.I., Kabirova N.V. Moliya. O’quv qo’llanma. T.: IQTISOD-MOLIVA. 2017. 102-bet.
3. 2021-yil 30-dekabr sanasida qabul qilingan “2022-yil uchun O’zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O’zbekiston Respublikasining O’RQ-742-son qonunining 5-ilovasi
4. Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. Public Budgeting Systems. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 201
5. Rohwer, Anja (2009): Measuring Corruption: A Comparison between the Transparency International’s Corruption Perceptions Index and the World Bank’s Worldwide Governance Indicators, CESifo DICE Report, ISSN 1613-6373